www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Ko`zi ojizlar ta`limida korreksion metodning ustuvorligi

Baratov Muslimbek Alisher o‘g‘li

ADPI Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi stajor o‘qituvchisi, tadqiqotchi

muslimbek.baratov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada korreksion metodlarning ko`zi ojizlar ta`limida ustuvorligi, orni va ahamiyati to`g`risida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:**Integratsiya, adaptatsiya, korreksiya, inkluziv ta`lim, tiflopedagogika, metod, ko`zi ojiz

KirishYosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish g‘oyatda mas’uliyatli vazifadir.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan ta`lim sohasiga oid barcha muassasalarning maqsad va vazifalari barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgandir.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi: Ko`zi ojiz bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganish, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanish, korreksiya qilsh maxsus pedagogikaning bir bo`g`inidir.

Korreksiya so‘zi – lotincha “Tuzatish, bartaraf etish” degan so‘zlardan olingan.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini o‘rganish va shu asosida ular uchun integratsiyalashgan, inkluziv sharoitda ta’lim-tarbiyani tashkil etish, ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi) reabilitatsiyasi, ijtimoiylashuvi bilan shug‘ullanish uchun alohida metodlar zarur.

Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini eshitish va sezgi organlariga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘rnini bosish ko`nikmasini shakllantirish g`oyat muhim.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl yozuvidan foydalanadilar. Ushbu yozuvda harflar, raqamlar, notalar, tinish belgi va boshqalar olti nuqta kombinatsiyasi orqali ifodalanadi.

Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integrat-siyalashgan, inklyuziv ta’limi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha jadal sura’tlar bilan rivojlanmoqda.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘qrisida”gi qonunga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat olib boruvchi barcha pedagoglar alohida yordamga muhtoj bolalar haqida tushunchaga ega bo‘lib, ularga ta’lim-tarbiya jarayonida qulay shart-sharoitlar yaratib, zarur bo‘lsa, individual dasturlar tashkil etib, integratsiyalashgan inklyuziv sharoitda me’yorda rivojlangan tengdoshlari qatori ta’lim olishi yoki maxsus maktab-internatlarda tahsil olishiga ko`maklashishi zarur.

Inklyuziv ta’lim bu bugungi kunda davlat siyosati darajasida yangi tizimdir. Bunda nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta’lim vazifalari:

- Ta’lim muassasasida ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan imko-niyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zarur psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslash-tirishni amalga oshirish;

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

- Maxsus ta’lim muassasasi o‘quvchilarini umumta’lim maktablari bilan uyg‘unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo‘li bilan o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajral-magan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;

- Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga mu-qobil munosabatni shakllantirishdir.

“Integratsiya” tushunchasi ingliz tilidan olingan bo‘lib, integ-rative – qo‘shiluvchi, birlashuvchi, integration – qo‘shilish, birlashish degan manoni bildiradi.

Pedagogik integratsiya – ta`lim-tarbiya jarayonida nogiron bolalarni sog`lom bolalar bilan birga o`qitishning o`ziga xos uslubidir.

Ijtimoiy integratsiya – rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani ijti-moiy munosabatlar va xatti-harakatlarning umumiy tizimiga ijtimoiy adaptatsiyasidir. Nogironni jamiyatga kirishga tayyorlash bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, jamiyatni nogiron bolani qabul qilishga tayyorlash bo‘yicha ishlar endi muhokama qilinmoqda.

Ijtimoiy adaptatsiya – o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga insonni moslashish qobiliyati bo‘lib, u ijtimoiylashuv va integratsiyaning muhim mexanizmidir. Ijtimoiy adaptatsiya turli faoliyatlar (o‘yin, muloqot, o‘qish, mehnat) va insonni o‘zini anglash jarayonida amalga oshadi. Mazkur faoliyat turlari bir vaqtning o‘zida hayotning turli bosqichlarida adaptatsiya vositalari, maqsadlari va natijalari sifatida xizmat qiladi.

BMT tomonidan 1981-yil Xalqaro nogironlar yili deb e’lon qilingan, bu yili ko‘pgina mamlakatlarda barcha fuqarolarni teng huquqligini amaliyotda vujudga keltirish maqsadiga qaratilgan qonun va farmonlarni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasini nogironlarga nisbatan davlat siyosati “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalanganligi” haqidagi qonun ilk bor (1991-yil) bilan ifodalanib, qonunda aholining mazkur qatlamini barcha fuqarolar bilan teng bo‘lgan hayot faoliyati imkoniyatlarini ta’minlash, to‘laqonli hayot kechirish, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etish hamda o‘z fuqarolik burchlarini bajarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi aks ettirilgan.

Davlatning rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni integratsiyalashni nazorat qilish tizimi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Yangi o‘quv dasturini tasdiqlash. O‘quv dasturi o‘quv jarayonini mazmuni va vazifalarini ilmiy, ijtimoiy va texnik amaliyotga bog‘liq bo‘lishi va shu bilan birga har bir o‘quvchi, ayniqsa, alohida ta’limiy ehtiyojlarga ega o‘quvchi tomonidan fanni idrok etish sur’atining o‘ziga xos tuzilishini inobatga oshishi joiz.

2. Mutaxassislarni rivojlantirish va tayyorlash. Ta’limni isloh qilishni olg‘a surilish mutaxassislar – maktab o‘qituvchilari, tarbiyachilar, ijtimoiy ishchilarni kasbiy ehtiyojlarini inobatga olmagan holda amalga oshirib bo‘lmaydi.

3. Ta’lim-tarbiya va bolalar muassasalariga ma’murlar tayinlash. Integratsiyalash jarayonida turli tashkilotlar ishini koordinatsiyalash hamda bolalarni o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shart-sharoitlar yaratishni tartibga solish va tashkil etishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

4. Ta’lim tizimini baholash. Amalga oshirilayotgan ta’lim islohotini samaradorligini baholash, unga bog‘liq davlat sifati standartlarini qabul qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Muhokama va natijalar

Me’yorda rivojlana olmayotgan bolalar ham katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan muloqot, ota-onalariga xo‘jalik bo‘yicha yordamlashish, ularni o‘rab turgan hayot va hodisalarga o‘xshatib qilingan turli o‘yinlarni o‘ynash, televidenie va radiodan axborot olish jarayonida ma’lumot va bilimga ega bo‘ladilar. To‘g‘ri tarbiya o‘rnatilgan oiladagi bolalar zimmasida uy-ro‘zg‘or xo‘jaligi va ularni o‘rab turgan hayot haqidagi tushunchalarini kengaytirishga yordam beruvchi ma’lum bir maishiy-xo‘jalik majburiyatlari bo‘ladi. Bundan tashqari, maktabda o‘qish o‘smirlarni zarur bo‘lgan ma’lumot, odat, malakalar zaxirasi bilan qurollantiradi.

Alohida yordamga muhtoj bolalarda esa ushbu jarayon boshqa-cha kechadi. Ushbu toifadagi bolalar bilan ishlovchi xodimlar ta'lim va tarbiya shakllarining mohiyatini, maqsad va mazmunini, usul hamda vositalarini, tamoillarini yaxshi egallab, ularni amalda qo‘llay olishlari kerak. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarni o‘z kuchiga ishontirish, mashg‘ulotlarga havasini uyg‘ota bilish, material bayoni vaqtida ularning diqqatini to‘la jalb qila olish, materialni esda saqlab qolish yo‘llarini (mashq, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, mustaqil ish, suhbat, didaktik o‘yin kabi vositalarni) qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi.

Barcha turdagi muassasa xodimlari tarbiyalanuvchilarining psixologik rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda, shular asosida o‘z ishini to‘g‘ri tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 23-moddasiga ko‘ra rivojlanishida jismoniy yoki psixik kamchiliklari bo‘lgan alohida yordamga muhtoj bolalar ta’lim olish huquqiga egadir.

Xulosa

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. “Yoshlarimizning haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo’lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g’urur va iftixor bag’ishlaydi”. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yurtimiz yoshlari haqidagi bunday ishonchli fikrlari biz pedagoglarni barkamol avlodning ma’naviyatini shakllantirish, har bir o’quvchining kasbga bo’lgan qiziqishini rivojlantirish va ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga sidqidildan yondashishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 03.08.2017 dagi O’zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi

2. Sunnnatillo Dangalov, Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati, Tavsiyanoma – T: 2010

3. P.M.Po‘Iatova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova, Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014

4. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish). T.: G‘.G‘ulom. 2005 y.

5. www.lex.uz

6. www.daryo.uz